
OTA- ONALAR YIG'ILISHI

OTA- ONALAR YIG'ILISHI

Joriy yilning 18 aprel kuni “Yer resurslari va kadastr” fakultetida ota-onalar va ta’lim muassasasi hamkorligini yanada rivojlantirish, talabalar ma’naviy dunyoqarashini kengaytirish, ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar to’g’risida ota-onalarga ma’lumot berish maqsadida yig’ilish bo’lib o’tdi.



Yig`ilishda asosan o`quv yili mobaynida muntazam dars qoldirgan, fandan qarzi bor hamda universitetning ichki odob axloq qoidasiga rioya qilmasdan darsga keladigan talaba-yoshlarni ota-onalari chaqirtirildi. Yig`ilishni fakultet dekani Sh.Narbaev, Yoshlar bilan ishlash bo`yicha dekan movini H.Eshova hamda xotin-qizlar masalalari bo`yicha dekan maslahatchisi Z.Hafizovalar olib borishdi. Eng avvalo ona-onalar

farzandlari o'qiyotgan fakultetni shart-sharoitlar bilan tanishishdi.



Fakultet dekani barcha ota-onalarimizni qiziqtirgan savollariga javob berdi va ularga fakultet dekan muovinlari kafedra mudirlari, guruh murabbiylar va tyutorlarni tanishtirdi. Tashkil etilgan ota-onalar yig'ilishida farzandlari tahsil olayotgan ta'lim muassasasida yaratilgan sharoitlar, o'quv jarayonida amalga oshirilgan islohotlar, moddiy texnika bazasi va mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar to'g'risida atroflicha ma'lumot olish imkonini berdi.



Bu yig'ilishdan maqsad ota-onalar bilan doimiy ravishda hamkorlikda ishlash, bu borada farzandlari ta'lim olayotgan fakultet bilan doimiy aloqada bo'lib turishlari kerakligi to'g'risida ham fikrlar berib o'tildi. Yig'ilishda fakultet dekani ota-onalarni qiziqtirgan savollarga javob berdi va ota-onalarning farzandlarini o'qish jarayonidagi mas'uliyatini oshirish, unversitetda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga befarq bo'lmasligida ota-onalar va fakultet hamkorligini yanada rivojlantirish to'g'risidagi takliflari berib o'tild.

YRK fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan movini Hurriyat Eshova axboroti